

KUSHONLAR DAVRI MADANIYATI

Muhammadiyev Bilol Ismoil o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi
mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com
Tel: +998883638090

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20588985>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zidan yuksak madaniyat qoldirgan Kushonlar davridagi shahar sozlik, din ishlari, memorchilik, sohalarining rivojlantirishi va bularning bugungi kunda o‘rganilishi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Kushonlar, Kanishka, Buddizm, Dalvarzintepa, Baqtriya, Eski Termiz, Baqtriy yozuvi.

Milodning dastlabki III–IV asrlarida O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan Kushonlar imperiyasi yuqori taraqqiyotga erishgan edi. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bu davlatda bir qancha yirik savdo markazlari — Baqtriya, Sug‘d, Choch, Buxoro, Poykand kabi shaharlarda savdo-sotiq va mol ayirboshlash rivoj topdi. Kanishka (78–123) hukmronligi davrida poytaxt Surxon vohasidan Peshovarga ko‘chirilgach, hindlar bilan madaniy va siyosiy jihatdan yaqinlashgan kushonlar davlatiga buddaviylik dini kirib keldi. Buddaviylik dini madaniyatning me‘morchilik, tasviriy san‘at va haykaltaroshlik kabi sohalariga ta‘sir ko‘rsatdi.

Kushonlar davlatida ahahrsozlik: shaharlar va hunarmandchilik, Kushoniylar davrida saltanatning barcha hududlarida shaharlar rivojlanishi tez sur‘atlar bilan rivojlangan. Bu davrda ilgari shaharlar o‘z taraqqiyotida yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishi barobarida ko‘plab yangi shaharlar ham qad rostlagan.

“Ming shaharli o‘lka” deb atalgan Boxtarda hayot yanada yuksaldi. O‘nlab katta-kichik yangi shaharlar, saroylar va mahobatli ibodatxonalarga asos solindi va tom ma‘nodagi shahar madaniyati qaror topdi. Boxtar o‘lkasining poytaxti Boxtar, Qal‘anzol, Dilbarjin, Chaqaloqtepa, Jigartepa, Surxko‘tal, Kayqubodshoh, Yovon, Kalanmir, Shahrinav, Saksonoxur kabi qator yodgorliklar o‘rnida qad rostlagan shaharlar buning yorqin dalilidir.

Surxon o‘lkasining o‘sha davrga oid eng katta shahri — o‘lka markazi Termizdir. Termiz Amudaryoning o‘ng sohilida, qulay daryo kechuvi ro‘parasida joylashgani uning tarixdagi o‘rnini belgilab bergan. Bu yerda shimoli janub, sharqi g‘arb bilan bog‘lovchi qadimgi savdo yo‘llari kesishgan. Termiz shahar qo‘rg‘oni shahriston, Chingiztepa, Qoratepa va shahar atrofida joylashgan Fayoztepa, Zurmala kabi yodgorliklardan iborat bo‘lib, uning umumiy maydoni 350 gektardan ortiq bo‘lgan. Daryo bo‘yida joylashgan shahar qo‘rg‘oni 10 gektar maydonni egallagan bo‘lib, uch tomondan mahobatli mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Shahar qo‘rg‘onida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va topilgan ashyolar bu yerda kushoniylar davrida ko‘plab mahobatli inshootlar bo‘lganligidan va hayot jadal rivojlanganligidan guvohlik beradi. Binolar kvadrat shaklidagi xom g‘ishtlardan barpo etilgan. Ma‘muriy binolarni bezashda turli me‘moriy bezaklardan, xususan, oq ohaktoshdan tarashlangan ustun taglari va korinf uslubiga xos ustun oshlaridan foydalanilgan. Mazkur bezaklar yunon me‘morchiligi an‘analari kushoniylar davrida keng qo‘lanilganidan darak beradi.[1, b - 95].

Xolchayon Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan bo‘lib, u ikki qismdan iborat. Arxeologik tadqiqotlar Qorabog‘tepa va Xonaqotepa yodgorliklarida olib borilgan. Bu yerda 9 xonadan iborat hokim saroyi aniqlangan bo‘lib, u asosan xom g‘ishtdan qurilgan.

Mazkur saroyning to‘rt ustunli ayvoni va katta zali tasviriy san‘at hamda haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. Haykallarning asosiy qismi kushon podsholari, xususan Gerayga bag‘ishlangan. Ushbu haykallar tarkibida yuechjilar bilan bir qatorda boshqa etnik guruhlar, jumladan, baqtriyaliklar ham tasvirlangan.

Ayritom Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo sohilida joylashgan. 1932 yilda bu yerda topilgan tosh tasvirlarni Mikhail Masson o‘rgangan. 1933 yilda esa maxsus ekspeditsiya uyushtirilgan. Ayritom ibodatxona xarobasi bo‘lib, bu yerda asosan ohaktoshdan yasalgan haykallar topilgan. Haykallarda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan bo‘lib, shuningdek, Buddhizmga oid haykallar ham aniqlangan.

Dalvarzintepa yodgorligi aniqlangan. Bu yerda ma‘muriy bino qoldiqlari hamda kulollar yashagan xonalar (110 ta) tadqiq etilgan. Shuningdek, Dalvarzintepadan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Aniqlangan ashyolar kulolchilikning yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. 1972 yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumdan iborat xazina topilgan. Milodiy II–III asrlarga oid mazkur xazinadan sirg‘a, bilakuzuk, kamarband, uzuk, oltin shodasi, sopol idishlar, haykalchalar, taqinchoqlar, tangalar hamda shaxmat donalari aniqlangan.

1972 yilda Angor tumanidan 16 gektami egallagan Zartepa shahar harobasi topildi. Uylarning devorlari paxsadan qilingan. Aholi yashash xonalarining maydoni 4-15 m² ni tashkil qiladi. Buddistlarning saqlanib qolgan stupasidan bitta oltin plastinka ko‘zacha va yunon tangalariga taqlid qilib ishlangan Vasudeva I tangalari (ular 500 dan ortiq tanga) topildi. Shuningdek, Zartepaning 100 metrli mudofaa devori ham o‘rganildi. Topilgan ashyolar Zartepaning mil.av I asrga mansub ekanligini ko‘rsatadi. Qadimda mazkur shaharning 4 ta darvozasi bo‘lgan. Mudofaa devorlarining 9 metr, IV-V asrlarda esa 2 metr bo‘lgan. [3, b - 111].

Dini. Kushon podsholigi ruhoniylar qo‘lidagi davlat bo‘lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Milodiy 100-yilda Kanishka budda dini ulamolarining qurultoyini chaqiradi va ularning fikr-mulohazalarini o‘rganib, din sohasida islohotlar amalga oshiradi. Ilgari zarb etilgan tangalar asosan hind xudosi — Shiva tasviri bilan chiqarilgan bo‘lsa, endilikda tangalardagi xudolar tasviri ko‘payadi. Bu hol Kanishkaning budda dinini davlat dini deb e‘lon qilganiga qaramay, mamlakatda turli dinlarga e‘tiqod qilishga ruxsat berilganini ko‘rsatadi.

Kanishka davrida mamlakatda budda diniga bag‘ishlangan ibodatxonalar va ular yonida monastirlar qurilgan. Budda ibodatxonalarida o‘sha davr san‘ati keng aks ettirilgan. Jumladan, 1933-yilda Termiz yaqinidagi Ayritom hududidan topilgan ibodatxona peshtoqlariga sarg‘ish-oq toshlardan ishlangan haykallar o‘rnatilgan. Bu haykallarda nafis kiyingan va marjonlar taqqan ayollarning do‘mbira, rubob, chang, nay kabi cholg‘u asboblari chalayotgani tasvirlangan. Peshtoqning bir tomonida esa qo‘lida gul, meva va boshqa tuhfa ko‘targan kishilar haykallari aks ettirilgan. Bino ichidan g‘ishtdan ishlangan Budda haykalining siniqlari ham topilgan. Mazkur haykallarning ishlanish uslubi, kiyim-kechagi hamda musiqa asboblari Hindiston, O‘rta Osiyo va Yunoniston madaniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashganini, shuningdek, bu hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanganini yaqqol ko‘rsatadi.

Bu holat nafaqat Ayritom haykallari misolida, balki Xorazm, Farg‘ona, Sug‘d va Parfiya hududlaridan topilgan turli buyumlar hamda madaniy yodgorliklarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.[4, b - 85-86].

Baqtriyada Buddhizm davlat dini darajasiga ko‘tarilgach, Budda haykaltaroshlik san‘ati ma‘naviy hayotning muhim qismiga aylandi. Buni Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayritom, Qoratepa va boshqa yodgorliklar misolida ko‘rish mumkin. Baqtriya–Tohariston hududida buddizmni qabul

qilgan mahalliy ustalarning professional maktabi shakllangan. Shimoliy Baqtriyaning eng yirik ibodatxonalaridan biri Termiz yaqinidagi Qoratepa yodgorligi hisoblanadi. Ushbu yodgorlik dastlab Boris Staviskiy tomonidan o'rganilgan.[3, b - 109].

Miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyinchalik Baqtriya mahkamalarida yozuv yunoncha bo'lgan. Taxminan miloddan avvalgi III–II asrlarga kelib esa oromiy yozuvi asosida baqtriy yozuvi shakllangan, degan ilmiy farazlar mavjud. Chunki Oyxonimda miloddan avvalgi II asrning birinchi yarmiga tegishli baqtriy yozuvi topilgan. Qadimgi Baqtriyada o'sha asrlarda baqtriy tili va yozuvi keng tarqalgan bo'lib, barcha va hatto rasmiy yozuvlar ham muomalada bo'lganini tasdiqlovchi yozma va numizmatik materiallar topilgan.

Kushonlar davlat tepasiga kelgach, baqtriy tili va yozuviga katta e'tibor beriladi. Kanishka davrida baqtriy tiliga davlat tili maqomi berilib, u barcha sohalarga kirib boradi, hatto yunon tili va yozuvini ham siqib chiqaradi. Bu davrda diniy ibodatxonalar peshtoqlarida ham baqtriy tili va yozuvi Kanishka va uning vorislari farmonlariga aksini topgan. Masalan, Surx-Kotal va Rabatak ibodatxonalarida peshtoqlaridagi yozuvlar bunga misol bo'la oladi. Hatto Kanishka Rabatak ibodatxonasi devorlarida ajdodlari va o'z suratini tasvirlatgan hamda ularning nomlarini keltirgan. Ajdodlari ro'yxatida Kujula Kadfiz, Vima Takto, Vima Kadfiz (ya'ni Kadfiz) kabi hukmdorlar tilga olingan. Rabatek (Rabatak) yozuvlarida Kanishkaning bobosi Vima Takto nomining birinchi bor keltirilgani tarix fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ilgari kushon tangalarida nomsiz shoh — Soter Megas nomi bilan atalgan hukmdor mavjudligi ma'lum edi. Ammo bu tangalar aynan Vima Taktoga yoki Vima Kadfizga tegishlimi, degan masala munozarali bo'lib qolmoqda. Bizningcha, nomsiz shoh tangalari Vima Taktoga tegishli bo'lishi mumkin. Chunki Vima Kadfiz nomi bilan zarb etilgan tangalar mavjud. Shunday ekan, nima uchun Vima Takto o'z nomi bilan tanga zarb ettirmay, nomsiz shoh nomi bilan pul chiqargan — bu masala hanuzgacha muammoligicha qolmoqda. Rabatak yozuvining yana bir muhim jihati shundaki, unda Kushon podshosi Kanishka va uning sulolaviy ajdodlarining kelib chiqishi oriylardan ekanligi ta'kidlanadi. Bu ma'lumot o'zbek xalqi etnogenezi masalasini o'rganishda muhim ilmiy fakt hisoblanadi.[5, b - 191].

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Misol uchun, V.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda balki tog'li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi tog'li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o'rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgarigi davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug'orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.[2, b - 94].

Kushonlar davri Kushan imperiyasi O'rta Osiyo tarixida madaniy yuksalish davri bo'lgan. Bu davrda davlat kuchayib, turli xalqlar va madaniyatlar o'zaro aralashgan va boyigan. Ayniqsa, Kanishka davrida diniy bag'rikenglik kuchayib, buddizm keng tarqalgan. Arxeologik yodgorliklar

— Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa va Ayritom orqali bu davr madaniyatining yuqori darajada rivojlanganini ko‘rish mumkin. San‘at, haykaltaroshlik, me‘morchilik va kulolchilik rivojlanib, unda Hindiston va Yunoniston madaniyati ta‘siri ham seziladi. Xulosa qilib aytganda, Kushonlar davri madaniyati O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutib, keyingi davrlar rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Asqarov A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2023. – 456 b.
2. Eshov B. **O‘zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi** – T.: 2012. – 426 b.
3. Egemberdiyeva N. Arxeologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 200 b.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
5. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – 339 б.